

NAVBATDAGI AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHINI O‘TKAZISH.

“BEST PIPE AND PARTS” AJ

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig‘ilishini o‘tkazilishini ma’lum qiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi 2026 yil 7 may kuni soat 10-00da, Andijon viloyati, Asaka tumani, saxiylik ko‘chasi, 124-uyda bo‘lib o‘tadi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish 7 may kuni soat 09:30 da boshlanadi.

Aksiyadorlarning reyestri shakllantiriladigan sanalar:

- aksiyadorlarga xabar berish uchun 2026 yil 15 aprel;
- yig‘ilishda ishtirok etish uchun 2026 yil 1 may;

Yig‘ilish kun tartibiga quyidagi masalalar qo‘yilgan:

1. Jamiyatning 2025-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakuni yuzasidan ijro organining hisobotini tinglash.
2. Jamiyatning 2025-yil yakunlari bo‘yicha buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotlarini dastlabki tarzda tasdiqlash.
3. Jamiyat ichki audit xizmatining 2025-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini ko‘rib chiqish va tasdiqlash.
4. Jamiyatning 2025-yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati yakuni bo‘yicha tashqi auditorlik tashkilotining hisobotini ko‘rib chiqish.
5. Jamiyat ijro organiga 2025-yil uchun SMK (samaradorlikni muhim ko‘rsatkichlari), SYK (samaradorlikni yig‘indi ko‘rsatkichi) foizlarining to‘g‘ri hisoblanganligini tekshirish bo‘yicha auditorlik tashkilotining hisobotini ko‘rib chiqish.
6. Jamiyat korporativ boshqarish tizimini baholash natijalarini ko‘rib chiqish.
7. Jamiyatning “Kuzatuv kengashi a‘zolari, Ijroiya organi rahbarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom to‘g‘risida.
8. Jamiyatning 2025-yil yakuni bo‘yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividendlarni to‘lash shakli va muddatlarini belgilash bo‘yicha aksiyadorlarga taklif kiritish masalasi.
9. Jamiyatning 2026-yil uchun tashqi auditorini va uning xizmatlari uchun to‘lovining maksimal miqdorini belgilash masalasi.
10. Jamiyat aksiyadorlarining 2026-yil 19-yanvar kuni o‘tkazilgan navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish kun tartibidagi 4, 5 va 6-masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlarni bekor qilish to‘g‘risida.
11. Jamiyatning 2026-yil uchun mo‘ljallangan biznes-rejasini ko‘rib chiqish.
12. “BEST PIPE AND PARTS” AJ ijroiya organi rahbari (Bosh direktor)ni saylash masalasi.
13. “BEST PIPE AND PARTS” AJ kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash masalasi.
14. Jamiyatning “KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDA” NIZOMI to‘g‘risida.

Aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig‘ilishiga qatnashish uchun keladigan vakil belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma va shaxsini tasdiqlovchi xujjat bilan kelishi so‘raladi.

Aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishi o'tkazilishi bilan bog'lik axborot va ma'lumotlar vakolatli davlat organining info@bpap.uz va jamiyatning www.bpap.uz veb saytlariga joylashtirilgan.

Izoh: Navbatdagi umumiy yig'ilish sharoitidan kelib chiqqan xolda videokonferensaloqa tarzida o'tkazilishi mumkin.

***“BEST PIPE AND PARTS” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi.***